

CHO'L VA CHO'L-DASHT MINTAQASINING SUG'ORILADIGAN TUPROQLARI

Odiljonov Boymurod Elmurod o'g'li

*Andijon davlat pedagogika instituti Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya yo'nalishi
talabasi*

E-mail: odiljonovboymurod@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada cho'l va cho'l-dasht mintaqasining sug'oriladigan tuproqlarining holati, o'simlik qoplami va ekologiyasi to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Ohakli qora tuproq, gumus chimli qavat, kimyoviy, agrokimyoviy, agrofizik, biologik, karbonatliligi, profilining zichlanganligi, g'ovakligi.

Аннотация: В данной статье даны сведения о состоянии, растительном покрове и экологии орошаемых почв Степного и степно-степного региона.

Ключевые слова: Известковый чернозем, гумусовый дерновый пол, химический, агрохимический, агрофизический, биологический, карбонатность, уплотнение профиля, пористость.

Annotation: This article provides information on the state, vegetation cover and ecology of the irrigated soils of the steppe and steppe region.

Keywords: Calcareous black soil, humus-chimmed floor, chemical, agrochemical, agrophysical, biological, carbonativeness, compacted profile, porosity.

Sug'oriladigan taqirsimon tuproqlar. Taqir voha tuproqlari. Bu tip cho'l mintaqasining sizot suvlari chuqurda joylashgan sug'oriladigan tuproqlarini birlashtiradi. Bu tip vakillari uchun umumiy xossasi - qatqaloq hosil bo'lishiga moyilligi, suv-fizik xossalarini yomonlashishi, tashlab qo'yilganida taqirlanishidir. Ma'lumki, bu xossalar alohida tuproqlarda bir xil darajada aks etmagan, buning asosida

tipchalar ajratilgan. Taqir voha tuproqlari tipi boshqa voha tuproqlar kabi tipchalarga ajratish dastlabki tuproq (qumli cho'l, taqir, sur tusli qo'ng'ir) belgilarini namoyon qilish nisbati va xossalari bo'yicha amalga oshirilgan. O'zbekistonda taqir-voha tuproqlari kam tarqalgan va oz o'rganilgan. Karmana va Sherobod vohalari bo'yicha ba'zi ma'lumotlar bor. Ko'pchilik hollarda unda agroirrigatsion qatlamni mexanik tarkib bo'yicha bir xilligi va profilning pastki qismida farq qilishi, agroirrigatsion qatlam chegarasidan pastga tomon chirindini asta kamayishi, karbonat va gips qatlami ko'rsatilgan. Ko'pchilik sug'oriladigan taqir va taqir-o'tloqi tuproqlarning yuqori qatlamlari og'ir mexanik tarkibi bilan xarakterlanadi. Bu bilan uning salbiy agronomik xossasi bog'langan, qatqaloq paydo bolishga moyilligi namoyon bo'ladi. Qatqaloqning zararliligi, ayniqsa bahorda seziladi, yer betiga maysalaming chiqishiga halaqit beradi, vaqtida ishlov berilmasa, o'simlik dimiqib qoladi va nobud bo'ladi. Sug'oriladigan taqir va taqir-o'tloqi tuproqlar nisbatan asosiy oziq elementlarini ko'p ushlaydi, lekin ular madaniy ekinlaming normal rivojlanishi uchun yetarli emas. Bunday tuproqlarga organik va mineral o'g'itlarni solish, almashlab ekishni joriy qilishni taqozo etadi. Sug'oriladigan taqir va taqir-o'tloqi tuproqlar u yoki bu darajada sho'rlangandir. Ulardagi tuzlar miqdori o'zlashtirish vaqtida meliorativ tadbirlarning sifatiga bog'liq. Taqirlarning paydo bo'lishida tuproq hosil qiluvchi ona jinsning mexanik tarkibining og'irligi asosiy rol o'ynaydi.



Vohta taqirsimon tuproqlari. Bu toifadagi tuproqlarga cho'l mintaqasida sizot suvlari chuqur joylashgan sug'orma dehonchilikda foydalanib kelinayotgan tuproqlar kiradi. Vohta taqirsimon tuproqlarga quyidagi alomatlar va xususiyatlar xosdir. 1)

qatqaloqlanish jarayonining rivojlanishi, 2) haydalma yerdagi tuproqlarning ko'p kesaklanishi, 3) suv-fizik xossalarning pasayishi, 4) sug'orilgan yerlarni eski qo'riq yer sifatida qoldirilganda taqirsimon jarayonlarning rivojlanishi. Voha taqirsimon tuproqlarni bir qancha tipchalarga bo'linganda oldingi holatlar va keyingi paydo bo'lgan xususiyatlar o'zgarishi bilan tavsiflanadi[1].

Tuproq nomlari

1. Qumli tuproqlar	17. Podzol tuproqlar
2. Qumloqli tuproqlar	18. Oriq va ho'l loyli tuproq
3. Qumoqli tuproqlar	19. Loysimon tuproq
4. Loyli tuproqlar	20. Semiz loy, o'tloq qayir tuproq
5. Ko'proq toshli tuproqlar	21. Qumli-loyli tuproq
6. Toshli tuproq	22. Torfli tuproq
7. Qoyalik tuproqlari	23. Sho'rxoqli tuproq
8. Qo'ng'ir yer tuproqlari (qora tuproqga o'tuvchi)	24. Sho'rlangan loy tuproqlari
9. Qumli qora tuproq	25. Sho'rli ko'l tuproqlari
10. Qumlukli qora tuproq	26. Sochiluvchan do'ngli qumlar.
11. Qumoqli qora tuproq	27. Oxakli, bo'rli ochilib qolgan tuproqlar
12. Loyli qora tuproq	28. Mergelli tuproqlar
13. Qora tuproq	29. Botqoqlashgan qo'riq tuproqlar
14. Semiz qora tuproq	30. Botqoqlashgan ko'l tuproqlari
15. O'rmon qora tuprog'i	31. Botqoq tuproqlari
16. Ohakli qora tuproq	32. Tundra tuproqlar

1879 yilda V.I.Chaslovskiy tomonidan Osiyo va Yevropa qismining tuproq xaritasi tuzildi. O'zbekistonning tog' oldi va tog'larida tuproqlarning genetik xilma-xilligi umumiy geografik qonuniyatga bo'ysunadi. Joyning mutlaq balandligi ortib borgan sari yer yuzasining bo'laklarning bo'linishi, odatda, kuchayadi, havo temperaturasining rejimi yumshab, yog'in miqdori ortadi, o'slimlik qoplami ham chala cho'l efemerlaridan quruq dashtga xos o'tlar, archazor-siyrak daraxtlari o'rmon, o'rmon, o'tloqi-dasht va dasht o'simliklariga qadar navbatlanib boradi. Mavjud landshaft mintaqalarining har biri tuproq tarkibi va tuproq qoplaminig o'ziga xos tuzilishi bilan bir-biridan farq qiladi. Vertikal mintaqalardagi tuproqlar 3 tuproq-iqlim mintaqasiga bo'linadi: bo'z tuproq, o'rta tog' jigarrang tuproq va baland tog' och — qo'ng'ir

o'tloqi-dasht tuproqlari. Bo'z tuproqlarning quyi chegarasi dengiz sathidan 250–400 m balandlikda. Bu tuproqlar 900–1600 m balandlikda tog' jigarrang tuproqlari bilan almashinadi. Bo'z tuproqlar tog'larda o'ziga xos tuproq tipini hosil qilgan. Efemer yoki quruq dasht o'simliklarining barq urib o'sishi natijasida tuproqda chim qatlami vujudga kelgan va organic moddalar to'plangan. Bo'z tuproqlar morfologiyasi va kimyoviy tarkibiga ko'ra 3 xil: och tusli, tipik (oddiy) va to'q tusli bo'ladi. Bo'z tuproqlarda gumus chimli qavatida 1-4 % miqdorida; oziq moddalar yetarli, fizik xossalari yaxshi. Gumusli qavati (50-60 sm) sur rangli. Sug'orish natijasida 1,5–2 m gacha agroirrigatsion qatlam hosil bo'lgan. Ma'lum geomorfologik sharoitlarda tog' etagidagi yassi, kam drenajlangan tekisliklarda sug'orish natijasida grunt suvlari ko'tarilib, o'tloqi tuproq vujudga keladi, tuproqni sho'r bosadi. Daryolarning quyi terrasalari, deltalari, tog' etagidagi alyuvial — proyuvial tekisliklardagi gidromorf tuproqlar genetik jihatdan bir oz farq qiladi. O'rta balandlikda tog' jigarrang tuproqlari vertical pog'onada nisbatan bir jinsli mintaqa hosil qilgan tuproqlarning genetik jihatdan turlicha bo'lishi, asosan tog' tizmalarining ko'ngay va quyosh kam tushadigan shimoliy yonbag'irlaridagi kontrast idrometrik sharoitlarga bog'liq. Tuproq profili aniq differensiyalangan, gumusli qavati (45-60 sm) yaxshi rivojlangan, rangi to'q sur-jigarrang. Jigarrang tuproqda chirindi miqdori ko'p (5-8 %), gumusli qatlami yumshoq, rangi qo'ng'ir. Qo'ng'ir tog'-o'rmon tuproqlari tog' yonbag'irlarining quyoshga teskari tomida tarqalgan va seryog'in yillarida surilmalar bo'lib turadi. Och qo'ng'ir o'tloqi — dasht baland tog' tuproqlari O'zbekiston hududida vertikal mintaqalarning eng yuqoridagisi bo'lib, baland tizmalarining suvayirg'ich qismida tarqalgan. Asosan delyuvial yotqizilar va tub jinslarning nurashi (elyuvi)dan hodil bo'lgan. Och qo'ng'ir baland tog' tuproqlarining profilil unchalik qalin emas, bir oz surqo'ng'ir rangdagi gumusli qavati yaxshi rivojlangan. O'simlik qoplami tutash bo'lmaganligi uchun chimli joylari kam. Haydaladigan qatlami qo'ng'ir rangli, serkesak, qalinligi 50-70 sm, mayda tosh aralashgan. Och-qo'ng'ir tuproq tarkibida 5-7 % organik modda bor. Baland tog' mintaqasida, qor qoplamalari va buloqlar yonida o'tloqi va tog'li — botqoqi tuproqlar

shakllangan. Qizg'ish tusli tuproqlar O'zbekistonning tog' va tog' oldi mintaqalarida keng tarqalgan uchlamchi davr qizil rangli neogen tuproq hosil qiluvchi jinslarda rivojlangan bo'lib, ularning aksariyati og'ir mexanik tarkibga ega, juda zichlashgan va ancha ekstremal rejimini keltirib chiqaradi, bu esa tuproq hosil bo'lishida va unumdorligida aks etgan. Bu tuproq — iqlim sharoitida shakllangan tuproqlar profilining qizg'ish — qo'ng'ir tusliligi, yirik chang va loyqa fraksiyalari ko'p bo'lgan holda mexanik tarkibining og'irligi, gumus (1-1,2 %) va oziq moddalar (NPK) miqdorining ozligi, karbonatliligi, profilining zichlanganligi, g'ovakligi, Mg va suv sindiruvchanligining pastligi va o'simliklar o'zlashtira oladigan namlikning kam miqdorda bo'lishi xususiyatlari bilan liyoss yotqiziqalarda shakllangan tuproqlardan keskin farq qiladi. Bu tuproqlar ko'pincha keng to'liqinsimon va o'r-qirli relyefli tog' va tog' oldi mintaqalarga mansub, yer yuzasining nishabliklari, o'simlik qoplaminig siirakligi, gumusning ozligi, bahorgi kuchli yog'inlar, shuningdek, chorva mollarini tartibsiz yaylovlatib boqish, lalmi va sug'oriladigan yon bag'irlik yerlardan noto'g'ri foydalanish eroziya jarayonlari rivojlanishga yordam beradi. O'z navbatida eroziya tuproqning kimyoviy, agrokimyoviy, agrofizik, biologik va morfologik ko'rsatgichlari ga kuchli ta'sir ko'rsatadi, unumdorligini keskin pasaytiradi. Subtropik zonaning asosiy tuproqlari bo'lgan qizil tuproqlar (profilida temir va marganetning yirik qora konkretsiya yaralmalari qizil rang beradi) qizg'ish tusli tuproqlardan yuqori qatlamlarida gumus (6-9 % gacha) va azot (0,2-0,4) miqdorining ko'pligi hamda tuproq fizik xossalarining ancha yaxshiligi, ayniqsa, suvga chidamli strukturaning ko'pligi, eroziyaga qarshi tura olishi va suv o'tkazuvchanligi bilan farq qiladi. Cho'l mintaqasining sug'oriladigan qumli cho'l tuproqlari. Qumli cho'l tuproqlari cho'l mintaqasida tarqalgan bo'lib, ular avtomorf tuproqlar hisoblanadi, yer osti suvlari juda chuqur joylashgan bo'ladi. Qumli cho'l tuproqlar subaeral daryolarning deltalarida O'rta Osiyoda Qoraqum va Qizilqumda tarqalgan bo'lib, qadimgi allyuvial va dengiz yotqiziqalari ona jins bo'lib hisoblanadi. Bundan tashqari bu tuproqlarni hosil qiluvchi neogen-paleogen davrida shakllangan bo'r, ohaktosh, qumtosh, loy, slanes kabi tog'

jinslarining delyuviy, prolyuviyda, qadimiy daryo terrasasining allyuviyida va zamonaviy eol qumlari xizmat qiladi. O'zbekistonda bu tuproqlar Farg'ona, Qizilqum, Qarshi, Sherobod, Xorazm va Orolbo'yi hududlarida keng tarqalgan. Ularning maydoni 960 ming gektar bo'lib, 3,18 % ni tashkil qiladi.

Xulosa qilib aytganda

Foydalanilgan adabiyotalar

1.X.Q.Nomozov, Sh.M.Turdimetov. O'zbekiston tuproqlari va ularning evolutsiyasi. Darslik. -T.: «Fan va texnologiya», Toshkent, 2016-61-65-b

2.Toshbekov O', Urazbaev I. U. Tuproqni xaritaga tushirish»– Guliston 2020, 11-b

3.O'zME. O'n ikkinchi jild. Toshkent, 2000-yil